



PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA TARIXIY HAQIQATLAR

Vafoqulova Go‘zal Ochilovna
Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada «Yulduzli tunlar» romanida Zahiriddin Muhammad Boburning hayotdan o‘z shaxsiyatiga munosib o‘rin topish yo‘lida chekkan aziyatlari, hayot-mamot kurashlarida ko‘rsatgan shaxsiy qahramonliklari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy-biografik romanchilik, Javoharlal Neru, ichki kolliziya, ichki dramatism.

«Yulduzli tunlar» romani Pirimqul Qodirov ijodida faxrli o‘rinni egallaydi. Adib bu romanni yaratish bilan tarixiy mavzuni badiiy o‘zlashtirishning yangi bir namunasi ko‘rsatdi. O‘zbek adabiyotidagi tarixiy-biografik romanchilikni yangi bosqichga ko‘tardi. Asarda ulug‘ o‘zbek shoiri, adibi va mashhur podshoh Zahiriddin Muhammad Boburning ziddiyatli hayoti, dolg‘ali faoliyati, hayotdan o‘z shaxsiyatiga munosib o‘rin topish yo‘lida chekkan aziyatlari, hayot-mamot kurashlarida ko‘rsatgan shaxsiy qahramonliklari keng ko‘lamda tasvirlab berilgan.

Pirimqul Qodirov romanda Bobur obrazini yaratar ekan, bu benazir insonning jahoniy shuhrati va buyuk ahamiyatini, hind xalqining unga bo‘lgan mehr-muhabbatini chuqur idrok etgan. Darhaqiqat, hind xalqining buyuk yo‘lboshchisi Javoharlal Neru Bobur shaxsiga va faoliyatiga yuqori baho berib: «Bobur dilbar shaxs, uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo‘lgan. U san‘atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko‘p yaxshi fazilatlariga ega bo‘lgan. Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, san‘atda, hayotda, me‘morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha serilhom taraqqiyot yuz berdi»– deb yozgan edi. «Yulduzli tunlar» romani Javoharlal Neru so‘zlarining naqadar to‘g‘ri va asosli ekaniga jonli dalildir. Bobur Hindistonda saltanatni boshqarganda hukmdor bo‘lishning shon-shavkati bilan bir qatorda, adadsiz pushaymonliklarini, iztiroblarni, «xatolig‘»-u, «yuzi qarolig‘»larni boshidan kechirgan. Vatan sog‘inchi bilan o‘rtangan. Bu yo‘nalishda uning ajoyib, dilbar she‘rlari ham bor. Yozuvchi qahramoni tabiatiga doir ana shunday tarixiy gavhar dalillarni saralab, badiiy yaxlitlik bilan nurlantiradi. Natijada, yozuvchining mahoratidan nurlangan harorat badiiy jozibaga aylanadi va butun asar hujayralariga iliqlik baxsh etadi.

Shu ma'noda romanda Bobur ruhi, ichki dunyosi, xayollari, orzu-armonlarining yuksak mahorat bilan tasvirlanganini ta'kidlash zarur. Onasi Qutlug' Nigorxonim bilan Boburning nafas olishdayoq bir-birlarini tushunishlari, inining Xonzodabegimni nainki so'z, balki yurak bilan anglay bilishi, shoirning havo emas ilhom bilan nafas olayotgan betakror sohir holatlardagi his-hayajonlar tasviri Pirimqul Qodirovning ruhiyat mazmunlarini ko'rsatishdagi ustaligidan dalolat beradi. Yozuvchi Boburni ko'p hollarda ichki kolliziya, ichki dramatism, azobli, iztirobli, vaziyatlarda ko'rsatadi. Qahramon o'z-o'zini ichdan tahlil etadi, qiynayotgan savollarga shu yo'sinda javob izlaydi va topadi. O'zga qahramonlar bilan ba'zan so'z orqali emas, ichdan, vujud tili orqali muloqotda bo'ladi. Bu esa qahramon ruhiyatini teran yoritish imkonini beradi.

«Yulduzli tunlar» romanida Boburning shaxsiy hayoti tasviriga keragicha o'rin berilgan. Binobarin, Bobur asarda haqiqiy inson sifatida jonlanadi. Yozuvchi uning insoniy fazilatlarini onasi Qutlug' Nigorxonim, opasi Xonzodabegim, suyuqli xotini Mohimbegim va farzandi Humoyunga bo'lgan mehr-muhabbati misolida yaqqol ochib bergan. Natijada, Bobur kitobxon ko'z o'ngida pok qalbli oqil inson sifatida gavdalanadi. «Humoyun, jigarim, – deydi Bobur og'ir kasal bo'lib yotgan o'g'liga qarab, – sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin».

Asarda Boburning xotin-qizlarga munosabati ham jonli va ishonarli aks etgan. U xotini Mohimbegimning aql-u farosati, farzandlarini mehr-oqibatli qilib tarbiyalayotganiga tan berib: «Mohim, Siz mening benazir malagimsiz! Men shoh bo'lsam ham ulug' qalbingiz o'trusida qulmen!» – deydi. Bobur ajoyib me'mor Fazliddin bilan suhbatda: «Men... Samarqanddagi Bibixonim madrasasidek ulug' bir madrasaning tarxini sizga chizdirmoqchi edim. Opa-singillarimizning qadrini boshimizga ko'tarsak arzigay...», – deydi.

Shunday qilib, romanda voqealar davomida Bobur obrazining turli qirralari birin-ketin ochila boradi. Asarda tasvirlanishicha, Bobur zo'r bir davlat tuzib, yurtni farovon, mamlakatni obod qilish yo'lida harakat qilar ekan, ilm-fan, san'at va adabiyot ahliga har jihatdan yordam beradi. U aqlning qudratiga ishonadi.

Shu ma'noda «Yulduzli tunlar» yozuvchi burchini namoyon etgan yulduzli onlardir. Roman yuqorida e'tirof etilgan jihatlari va buyuk bir tarixiy siymoni qaytadan kashf etilishi bilan o'zbek adabiyotida mustahkam o'rin egalladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar. –G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, Toshkent-2018.

